

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPOTENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION
YONDASHUV**

Rasulova Zilola Durdimurotovna

Zarmed universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari nazariy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, kasbiy kompotentlik, ijodkorlik, mustaqil faoliyat, texnologik kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, intellektual salohiyat.

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. bu esa barcha ta'lim muassasalarida, yuqori saloyihatl mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko'rinishda faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biridir. Shunday ekan yangi ijtimoiy iqtisodiy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash kasbiy kompotentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga erishish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Kasbiy kompotentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish jarayonidir. Kasbiy kompotentlik negizida muayyan texnologik kompotentlik, kreativ kompotentlik hamda innovatsion kompotentlik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Texnologik kompotentlik – kasbiy pedagoglikni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish imkonini beradi.

Kreativ kompotentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish jarayoni.

Innovatsion kompotentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyatga samarali tadbiq etishdir. Bo'lajak texnologiya fani

o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko’nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqatlarining o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu yo‘lda ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etilishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan mutaxassislar zarur. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini xususan bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o‘quv – tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzlucksiz olib borish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zлari izlanib topishlariga, mustaqil fikrlab, o‘rganib tahlil qilishlariga va xulosalarni ham o‘zлari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

Shuningdek pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarni bilimlarning yaxlit o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Talabai tafakkurini o‘siradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Pedagogik texnologiya oldindan belgilab qo‘yilgan aniq maqsad yo‘lida o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va talimda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar yig‘indisi hisoblanadi. Bundan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida butun o‘qitish va o‘rgatish jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va baholashning tizimi bo‘lib, uning asosini ta’lim oluvchilarning berilgan sharoitlar va ajratilgan vaqt ichida o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishlarini ta’minalash g‘oyasini tashkil etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘quv jarayonlarini modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, didaktik o‘yin texnologiyalari, muammoli ta’lim texnologiyalari kabi yangi texnologiyalar asosida tashkil qilinsa, o‘quv maqsadlarining samaradorligi yanada takomillashadi. Bunday innovatsion yondashuvlarning qisqacha tavslifiga to‘xtalsak, modulli ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos jihatni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalarning mustaqil va ijodiy izlanishiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg‘ulotlardan ko‘zlangan maqsadga erishadilar. Modul dasturlarining didaktik maqsadlaridan kelib chiqib, o‘quv-tarbiya jarayonidan o‘z o‘rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O‘quv tarbiya jarayonida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat

tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ta’lim olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Muammoli o‘qitish jarayoni shaxsnинг ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos tarzda oily o‘quv yurtlari ish amaliyotida muammoli o‘qitish bilan birgalikda illyustratsiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-ma’lumot texnologiyasi va dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi kabilardan keng foydalanishni taqozo etadi. Muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqillik roli reproduktiv o‘qish usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatning xususiyati quyidagilardan iborat:

- o‘quvchi-talabalar uchun noma’lum yangiliklarning mavjudligi;
- muammolarni o‘zлari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o‘zлari o‘rganishga harakat qilishlari;
- nima noma’lum ekanligini bilib, ma’nosini tushunib, uni hal etishga intilishi kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ayniqsa amaliy mashg‘ulotlar chog‘ida bajariladigan mehnat operatsiyalarida yuzaga keladigan bir qancha muammoli vaziyatlarning talabalar tomonidan ilg‘or texnologiyalar asosida mustaqil izlanilishi, ularning yanada kreativ sifatlarinini tarkib toptiradi hamda, kasbiy ijodkorligini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytadigan o‘quvchi va talaba yoshlar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta’lim mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta’lim uzluksizligini ta’minlab berish uchun ta’lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarini joriy qilish bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ularning kelajakda innovatsion faoliyatlarini yaratishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi hamda o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / – Тошкент, 2015. – 120 б.
2. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. 56-59 б.
3. Omonov H.T, Xattobov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-Moliya”, 201-200 b.
4. www.ziyonet.uz kutubxonasi.